

SHAROPOV Sarvar Faxriddinovich
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o'rganish ICESCO kafedrası
2-bosqish magistranti
 Orcid: 0009-0009-5516-2414
sharopovsarvar433@gmail.com

Ilmiy rahbar: RAHIMJONOV Durbek Obidjonovich
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o'rganish ICESCO kafedrası dotsenti,
tarix fanlari nomzodi

BUYUK BRITANIYADA ISLOMSHUNOSLIK FANLARINI O'QITISH USULLARI VA YONDASHUVLARI: TARIXIY, AKADEMIK VA FANLARARO METODLAR

МЕТОДЫ И ПОДХОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСЛАМОВЕДЕНИЯ В ВЕЛИКОБРИТАНИИ: ИСТОРИЧЕСКИЕ, АКАДЕМИЧЕСКИЕ И МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ МЕТОДЫ

TEACHING METHODS AND APPROACHES TO ISLAMIC STUDIES IN THE UNITED KINGDOM: HISTORICAL, ACADEMIC, AND INTERDISCIPLINARY METHODS

Annotatsiya: Maqolada Buyuk Britaniyada islomshunoslik fanlarini o'qitishning tarixiy rivoji, akademik yondashuvlari va fanlararo metodlari tahlil qilinadi. XIX asrdagi sharqshunoslik ildizlaridan boshlab, SOAS, Oksford va Kembrij universitetlaridagi zamonaviy o'quv tizimlari, interaktiv dars uslublari va raqamli platformalar misolida o'rganilgan. Tadqiqotda Qur'on, hadis, fiqh, siyosiy islom hamda media tadqiqotlarining integratsiyasi orqali islomshunoslikning tanqidiy va global akademik yondashuv sifatida shakllanishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Buyuk Britaniya, islomshunoslik, SOAS, Oksford, Kembrij, fanlararo yondashuv, akademik metodlar.

Аннотация: В статье анализируется историческое развитие, академические подходы и междисциплинарные методы преподавания исламоведения в Великобритании. Начиная с ориенталистских традиций XIX века, исследуются современные образовательные системы, интерактивные методы обучения и цифровые платформы в университетах SOAS, Оксфорда и Кембриджа. В исследовании показана интеграция Корана, хадисов, фикха, политического ислама и медиаисследований, способствующая формированию исламоведения как критического и глобального академического направления.

Ключевые слова: Великобритания, исламоведение, SOAS, Оксфорд, Кембридж, междисциплинарный подход, академические методы.

Abstract: The article analyzes the historical development, academic approaches, and interdisciplinary methods of teaching Islamic Studies in the United Kingdom. Beginning with the Orientalist traditions of the 19th century, it explores modern educational systems, interactive teaching methods, and digital platforms at SOAS, Oxford, and Cambridge universities. The study highlights the integration of Qur'an, Hadith, fiqh, political Islam, and media studies, illustrating the formation of Islamic Studies as a critical and global academic discipline.

Keywords: United Kingdom, Islamic Studies, SOAS, Oxford, Cambridge, interdisciplinary approach, academic methods.

KIRISH

Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimida islomshunoslik fanlariga bo'lgan e'tibor yildan-yilga ortib bormoqda. Bu mamlakatda mazkur yo'nalish diniy tushunchalarni faqat aqidaviy yoki fiqhiy jihatdan emas, balki madaniy, tarixiy va ilmiy kontekstda o'rganishga qaratilgan. Shuning uchun ham Britaniya universitetlarida islomshunoslik fanlari keng ilmiy doirada, zamonaviy ta'lim metodlari va fanlararo tahlil yondashuvlari asosida o'qitiladi.

Islomshunoslikni o'qitishda asosiy maqsad talabalarni diniy matnlarni, tarixiy manbalarni va zamonaviy ijtimoiy jarayonlarni tanqidiy tahlil qila oladigan, turli madaniyat va tafakkur an'analarni solishtirib o'rganadigan mutaxassis sifatida

shakllantirishdir. Shu bois, Buyuk Britaniya ta'lim muassasalari ushbu yo'nalishda an'anaviy ilohiyot metodlarini zamonaviy ijtimoiy fanlar bilan uyg'unlashtirgan o'quv dasturlarni qo'llaydi.

Mazkur maqola Buyuk Britaniyada islomshunoslik fanlarini o'qitishda qo'llanilayotgan tarixiy, akademik va fanlararo metodlarni yoritishga bag'ishlanadi. Unda o'quv jarayonining ilmiy asoslari, dars jarayonida qo'llaniladigan tahliliy yondashuvlar hamda islomshunoslikni o'qitishning o'ziga xos jihatlari tahlil etiladi.

ASOSIY QISM

So'nggi o'n yilliklarda Buyuk Britaniya oliy ta'lim muassasalarida islomshunoslik fanlariga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi. Bunday e'tibor, bir tomondan, global geosiyosiy o'zgarishlar va musulmon jamoalarining G'arb jamiyatlaridagi o'rining kuchayishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, akademik doiralarda islom dinining tarixiy, falsafiy va madaniy boyliklarini chuqur o'rganishga bo'lgan ehtiyoj bilan izohlanadi. Ayniqsa, SOAS (London), Oksford va Kembrij universitetlari huzurida shakllangan yondashuvlar, metodlar va o'quv dasturlari nafaqat Buyuk Britaniyada, balki butun G'arb dunyosida islomshunoslik ta'limining namunasiga aylangan.

Buyuk Britaniyada islomshunoslik fanining shakllanishi XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan bo'lib, ushbu tarixiy yondashuv jarayoni mustamlakachilik siyosati, sharqshunoslik an'analari va diniy-madaniy aloqalarning kuchayishi bilan bevosita bog'liq. Dastlabki islomshunoslik tadqiqotlari G'arbda, xususan Britaniyada, musulmon jamiyatlarini anglash va boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishga xizmat qilgan. Bu davrda shakllangan metodlar, asosan, filologik va tarixiy yondashuvlarga asoslangan bo'lib, ular sharq tillarini (arab, fors, urdu) o'rganish, Qur'on va Hadis matnlarini tahlil qilish hamda islom tarixini yozish kabi sohalarni qamrab oldi.

Sharqshunoslik tarixida muhim o'rin tutgan olimlardan biri Edvard Pokok (Edward Pococke, 1604-1691) bo'lib, u Oksford universitetida arab tili professori lavozimida ishlagan va birinchi bo'lib G'arbda Qur'on tafsirlarini o'rgana boshlaganlardan sanaladi. XIX asrda esa Tomas Arnold, Reynold Nikolson, Hamilton Gibb,

Alfred Guillaume kabi ingliz sharqshunoslari islomshunoslikka metodik asoslar kiritdi. Ularning asarlari musulmon dunyosining madaniy, ijtimoiy va siyosiy tuzilishini tahlil qilishga yo'naltirilgan edi.

Masalan, Hamilton A.R. Gibb o'zining "Modern Trends in Islam" (1947) nomli asarida zamonaviy islom tafakkuri va uning G'arb bilan o'zaro aloqalari haqida fikr yuritadi [1:15]. Gibbning fikricha, musulmon olamida ro'y berayotgan islohotlar va tafsirlar XIX–XX asrlarda G'arbdagi sharqshunoslik maktablarining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Buyuk Britaniyada islomshunoslikning dastlabki bosqichlarida asosan Qur'on matnlarini tarjima qilish, hadislarni tartibga solish va islom tarixini G'arb didaktikasiga moslashtirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Bu davrda yaratilgan ko'plab tarjimalar, jumladan George Sale'ning Qur'on tarjimasi (1734) va Rodwell hamda Palmer'ning keyingi tarjimalari, musulmon manbalarini G'arb ilmiy doiralarga tanishtirishda muhim rol o'ynagan. Bu tarjimalar ko'pincha tanqidiy, ba'zan esa apologetik ruhda yozilgan bo'lsa-da, ular islomshunoslik fanining poydevorini yaratgan.

Tarixiy yondashuvning yana bir muhim qismi — musulmon tarixchilari va mutafakkirlarining ishlari bilan tanishish va ularni tahlil qilish bo'ldi. Misol uchun, Reynold Nikolson Jaloliddin Rumiy va Al-G'azoliy kabi tasavvuf mutafakkirlarini G'arpga tanitgan eng nufuzli tarjimonlardan biri edi. Uning "The Mystics of Islam" (1914) asari sufiya tafakkuri, uning tarixi va uslublarini keng yoritgan [2:52].

XIX asrda Britaniya mustamlakachilik siyosati Hindistonda islomshunoslikni amaliy jihatdan ham zarur qilgan. Musulmon jamiyatlari bilan aloqa qilish, ularning ijtimoiy tuzilmasini tushunish, diniy tartiblarni hisobga olish maqsadida hukumat islomshunos mutaxassislarni tayyorladi. Bu jarayon XX asr boshlarida Buyuk Britaniya universitetlarida islomshunoslikni alohida ilmiy yo'nalish sifatida tashkil etishga olib keldi.

1900-yilga kelib, Oksford universiteti huzurida islomshunoslik bo'yicha maxsus kurslar yo'lga qo'yildi. Ular orasida Qur'on tahlili, fiqh asoslari, arab falsafasi, musulmon dunyosi tarixi kabi fanlar bor edi. Keyinchalik, bu tajriba Kembrij va London universitetlariga ham tarqaldi. 1916-yilda tashkil

topgan School of Oriental and African Studies (SOAS) esa Buyuk Britaniyada islomshunoslik bo'yicha eng nufuzli markazga aylandi.

Tarixiy yondashuvlar doirasida, shuningdek, Sharqshunoslikning tanqidi sifatida paydo bo'lgan Edward Saidning "Orientalism" (1978) asari katta ahamiyat kasb etadi. Said G'arbning musulmon sharqiga nisbatan stereotipli va mustamlakachilik kayfiyatidagi qarashlarini tanqid qilgan holda, islomshunoslikka yangi postkolonial yondashuvlar kiritgan [3:95].

Bugungi kunda tarixiy yondashuvlar, jumladan filologik va madaniy tadqiqotlar, hali-hanuz islomshunoslik sohasining muhim tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Chunki bu yondashuvlar Qur'on va Hadis matnlarining tarixiy kontekstda tahlil qilinishini ta'minlaydi, shuningdek, musulmon jamiyatlarining rivojlanish bosqichlarini tushunishga imkon beradi.

Shuningdek, tarixiy yondashuvlar orqali islomshunoslik faniga doir muhim qo'lyozmalar, qadimiy manbalar va tarjimalar ilmiy muomalaga kiritilmoqda. Bunday ishlar hozirda SOAS, Oksford va boshqa ilmiy markazlarda davom etmoqda. Ularning asosiy maqsadi – G'arb va musulmon olami o'rtasida ilmiy ko'priklar yaratish, o'zaro anglashuvni chuqurlashtirishdir.

Buyuk Britaniyada islomshunoslik fanining akademik asosda o'qitilishi XX asr boshlariga kelib mustahkam ilmiy struktura shaklida rivojlana boshladi. Islomshunoslik endilikda faqat filologik yoki tarixiy doiradagi tadqiqot emas, balki kompleks, tizimli, ixtisoslashgan ilmiy yo'nalishga aylandi. Ushbu bo'limda uchta yetakchi oliy ta'lim muassasasi — SOAS (London), Oksford va Kembrij universitetlari misolida islomshunoslik fanlarining o'qitilishida qo'llanilayotgan akademik metodlar, kurs mazmuni, professor-o'qituvchilar faoliyati va talabalarning ishtirok darajasi keng ko'lamda tahlil qilinadi.

SOAS London universiteti tarkibida 1916-yilda tashkil etilgan bo'lib, G'arb dunyosida islomshunoslik bo'yicha yetakchi ilmiy markazlardan biri hisoblanadi. Bu yerda islomshunoslik bo'yicha bakalavriat va magistratura darajalarida o'quv dasturlari mavjud. Fanlararo yondashuv asosida Qur'onshunoslik, hadis ilmi, islom huquqi (fiqh), musulmon madaniyati, zamonaviy siyosiy islom, musulmon jamiyatlar sotsiologiyasi kabi fanlar o'qitiladi.

SOAS akademik tizimi modul asosida tashkil etilgan bo'lib, talabalar ma'lum fanlar blokini tanlab, mustaqil izlanish olib boradilar. Masalan, "Approaches to the Qur'an" nomli kurs Qur'on matnini turli metodologiyalar asosida o'rganishni taklif etadi: matnshunoslik, tarixiy-kontekstual yondashuv, tafsirlar solishtirmasi va zamonaviy qiyosiy yondashuvlar [4:27].

Shuningdek, SOASda diniy matnlarni original manbalardan o'qish va tahlil qilishga katta e'tibor qaratiladi. Arab tili chuqur o'rganiladi, shuningdek fors va turkiy tillarni tanlash imkoniyati ham mavjud. Bu holat musulmon manbalariga bevosita murojaat etish, tarjima xatolarining oldini olish va mustaqil tahlilga erishish imkonini beradi.

Oxford universitetida islomshunoslik fanlari Fakulteti Sharqiy tadqiqotlar (Oriental Studies) bo'limi tarkibida olib boriladi. Bu yerda ham bakalavr va magistratura bosqichlarida keng ko'lamli kurslar mavjud. "Islamic Studies" yo'nalishi tarkibida Qur'on va tafsir, islom falsafasi, tasavvuf, fiqh, siyosiy tarix, zamonaviy musulmon dunyosi, gender va islom, ekologiya va din kabi modullar mavjud.

Oksfordda islomshunoslikka bo'lgan yondashuv an'anaviy akademik qat'iylik, ilmiy-tanqidiy fikrlash va fanlararo integratsiyani o'zida mujassam etadi. Masalan, Joseph E. B. Lumbard rahbarligida olib borilgan Qur'on tadqiqotlari zamonaviy g'arb ilmi va musulmon tafsir uslublarini qiyosiy o'rganishga asoslangan [5:21].

Shuningdek, Oxford universitetida doktorantura darajasida ham islomshunoslik bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib boriladi. Ularning asosiy jihati mustaqil tadqiqotga katta urg'u berilishi, ilmiy rahbarlar bilan intensiv maslahatlar va manbaviy bazaga chuqur tayanishdir. Bu holat Oksforddagi islomshunoslik dasturini dunyodagi eng nufuzli o'quv tizimlaridan biriga aylantirgan.

Kembrij universitetining "Faculty of Asian and Middle Eastern Studies" bo'limi doirasida islomshunoslik o'rgatiladi. Bu yerda islomshunoslik fanlari asosan arab tili va adabiyoti, Qur'on va tafsir, tarix, fiqh va zamonaviy siyosiy tendensiyalar asosida tuzilgan. Kembrij universitetining yondashuvi ham klassik sharqshunoslik an'analari bilan zamonaviy tadqiqot metodlarini uyg'unlashtirgan.

Kembrijda "Islamic History and Thought" moduli orqali talabalar diniy-falsafiy tafakkur

tarixi, o'rta asr mutafakkirlari (masalan, Al-Farobiy, Ibn Sino, Al-G'azoliy) asarlarini o'rganadilar. Shuningdek, "Modern Islamic Thought" kursida Muhammad Iqbol, Hasan al-Banno, Said Nursiy, Fazlur Rahmon kabi zamonaviy islom mutafakkirlari qarashlari tahlil qilinadi [6:47].

Kembrij universiteti shuningdek, o'z kutubxonalarda islomshunoslikka oid boy qo'lyozmalar, qadimiy arabiy matnlar, tarjimalar va zamonaviy tadqiqotlarni o'z ichiga olgan manbalarni jamlagan. Bu kutubxona resurslari talabalar va tadqiqotchilar uchun katta imkoniyat yaratadi.

Ushbu uch universitetda islomshunoslik fanlarini o'qitishda quyidagi umumiy metodik jihatlar ajralib turadi:

- Matnga asoslangan o'qitish — Qur'on, Hadis, fiqh matnlarini asl tilida o'qib, tahlil qilish.
- Fanlararo yondashuv — Islomni antropologiya, tarix, siyosatshunoslik va tilshunoslik bilan bog'lab o'rganish.
- Tanqidiy fikrlashga e'tibor — Matnlarning turli talqinlari, zamonaviy va klassik qarashlarni solishtirish.
- Tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim — Mustaqil izlanishlar, ilmiy maqola yozish, arxiv materiallari bilan ishlash.
- Munozarali seminarlar — Yuqori ilmiy saviyadagi kichik guruhli muhokamalar.

Ushbu yondashuvlar Buyuk Britaniyada islomshunoslik fanlarini xalqaro miqyosdagi akademik mezonlarga javob beradigan darajada o'qitilishini ta'minlamoqda.

Buyuk Britaniyada islomshunoslik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik va ilmiy talablar asosida fanlararo yondashuvlar (interdisciplinary approaches) keng qo'llanilmoqda. Bu yondashuvlar orqali islomshunoslik boshqa ijtimoiy va gumanitar fanlar bilan integratsiyalashgan holda o'rganiladi: tarix, falsafa, antropologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, huquq, tilshunoslik, madaniyatshunoslik kabi sohalar bilan uzviy bog'liq holda talabalarga taqdim etiladi. Bunday metodlar G'arbiy ilmiy muhitda islomiy bilimlarni nafaqat an'anaviy diniy doirada, balki zamonaviy ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy aloqada o'rganish imkonini beradi.

Shuningdek, zamonaviy musulmon yoshlari orasida islomiy identitetning shakllanishi, diasporadagi musulmonlarning o'zini anglashi,

ijtimoiy tarmoqlardagi diniy diskurslar ham empirik tadqiqotlar yordamida tahlil qilinadi. Bu metod talabalarga diniy-falsafiy bilimlarni ijtimoiy hayot bilan bog'liq holda tahlil qilish malakasini beradi.

Buyuk Britaniyada islomshunoslik siyosatshunoslik fanidan ajralmas holda o'qitiladi. Ayniqsa, zamonaviy siyosiy islom, islomiy harakatlar, musulmon mamlakatlaridagi siyosiy tizimlar va huquqiy me'yorlar alohida modullar shaklida o'rgatiladi. SOASdagi "Islam and Politics" kursida musulmon dunyosidagi siyosiy tendensiyalar, siyosiy islom (Political Islam), islomiy konstitutsiyachilik, shariat va fuqarolik jamiyati kabi mavzular yoritiladi [7:130].

Zamonaviy yondashuvlar doirasida islomshunoslik media va madaniyatshunoslik bilan bog'liq holda ham o'rgatilmoqda. Buyuk Britaniyada musulmon jamoalarining ommaviy axborot vositalaridagi tasviri, islomofobiya, diniy stereotiplar, ijtimoiy tarmoqlarda diniy bloggerlik, musulmon rassomlar, kino va teatrdagi islomiy obrazlar kabi mavzular o'quv dasturlarining ajralmas qismiga aylangan.

Masalan, Islam and the Media kursida talabalar "BBC", "The Guardian", "Al Jazeera" va boshqa ommaviy axborot vositalarida islomiy mavzular qanday yoritilishini tahlil qiladilar. Bu orqali ularning media savodxonligi oshadi, diniy obrazlar ustidan tanqidiy fikr yuritish ko'nikmasi shakllanadi [8:88].

Oxford universitetining Centre for Islamic Studies (OCIS) tomonidan yuritilayotgan tadqiqotlar ko'p hollarda sotsiologiya, siyosatshunoslik, tarix, huquq va iqtisodiyot fanlari bilan bog'liq bo'lib, islomshunoslikni keng ijtimoiy-kontekstual doirada talqin etadi. Bu markazda olib borilayotgan ishlarda Britaniyadagi musulmon talabalar identiteti, islomiy moliyaviy tizimlar, eko-islom va ijtimoiy adolat masalalari ko'tariladi.

Cambridge universitetidagi Interfaith Studies kurslari esa islomshunoslikni xristianlik, iudaizm va boshqa dinlar bilan qiyosiy o'rganishga yo'naltiradi. Bu, ayniqsa, dinlararo muloqotni mustahkamlash, bag'rikenglik va ko'p madaniyatli jamiyatda islomning tutgan o'rnini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi [9:115].

Fanlararo yondashuvda yana bir dolzarb yo'nalish raqamli vositalardan foydalanishdir.

Buyuk Britaniyada ko‘plab islomshunoslik kurslari blended learning shaklida, ya‘ni an‘anaviy darslar bilan bir qatorda onlayn platformalar yordamida olib boriladi. Moodle, Canvas, Turnitin, Panopto kabi raqamli muhitlar yordamida talabalar matn tahlili, testlar, ilmiy muhokamalar, video darslar orqali ta‘lim oladilar.

Bundan tashqari, Qur‘on tafsirlarini taqqosiy o‘rganishda Corpus Quran, Qur‘an Gateway, Tanzil.net, Al Tafsir.com kabi platformalardan foydalaniladi. Bu esa talabalarning mustaqil tahlil qilish imkoniyatini kengaytiradi va ular o‘rtasida zamonaviy Qur‘onshunoslik yondashuvlarini joriy etishga xizmat qiladi.

Buyuk Britaniyada islomshunoslik fanlarini o‘qitishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Bu yondashuv talabalarning o‘rgangan bilimlarini real hayotiy holatlar bilan bog‘lash, mustaqil tadqiqot olib borish, madaniyatlararo muloqotga kirishish va akademik faoliyatga integratsiyalashish imkoniyatini yaratadi. Amaliyot va tajriba talabalarning tanqidiy fikrlash, analitik tahlil, matnshunoslik, dala tadqiqotlari va prezentatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oxford, Cambridge va SOAS universitetlarida islomshunoslik bo‘yicha ta‘lim olayotgan talabalar albatta yakuniy bosqichda ilmiy tadqiqot ishlari (dissertatsiya yoki research project) tayyorlaydilar. Ushbu mustaqil ishlar turli mavzularda bo‘lishi mumkin: Qur‘onshunoslik, Hadis ilmi, siyosiy islom, islom huquqi, tasavvuf, gender va islom, zamonaviy musulmon jamiyatlari, musulmon diasporalari, G‘arbdagi musulmon jamoalari va boshqalar. Bu ishlar ko‘pincha birlamchi manbalar (arab, fors, urdu qo‘lyozmalari), zamonaviy statistik ma‘lumotlar, sahro tadqiqotlari va ilg‘or nazariyalar asosida yoziladi [10:41].

Ushbu izlanishlar talabalarning ilmiy metodologiyani chuqur o‘zlashtirishiga, bibliografik tadqiqot olib borishiga va akademik yozuv ko‘nikmalarini mukammal shakllantirishiga xizmat qiladi.

SOAS, Oxford va Cambridge universitetlari musulmon dunyosidagi oliy o‘quv yurtlari bilan almashinuv dasturlarini faol qo‘llab-quvvatlaydi. Misol uchun, SOAS talabalari Misr, Marokash, Turkiya, Indoneziya, Eron va O‘zbekistondagi madrasalar, ilmiy markazlar, kutubxonalar bilan

akademik hamkorlik qilishadi. Ushbu dasturlar doirasida talabalar an‘anaviy islomiy ta‘lim muassasalarining ichki tuzilmasi, o‘quv metodikasi, diniy amaliyotlarini bevosita ko‘zdan kechiradilar va mahalliy mutaxassislar bilan ilmiy muloqotga kirishadilar.

Cambridge universitetining Centre of Islamic Studies har yili Fieldwork Grants e‘lon qilib, talabalarga musulmon jamiyatlarida etnografik yoki sotsiologik izlanishlar olib borish uchun mablag‘ ajratadi. Bu tadqiqotlar ko‘p hollarda musulmon yoshlar, islomiy tashkilotlar, masjidlar, ayollar guruhi yoki ijtimoiy media orqali shakllangan diniy faollikni o‘rganishga qaratilgan bo‘ladi [11:215].

Buyuk Britaniyada islomshunoslik darslari ko‘plab interfaol elementlarni o‘z ichiga oladi: seminarlar, muhokamalar, guruh ishlari, “case study”, taqdimotlar va hatto rolli o‘yinlar. Bu darslar talabalarning faolligini oshiradi va ilmiy kontentni amaliy faoliyatga bog‘lashga yordam beradi.

Masalan, Contemporary Islamic Thought kursida talabalar musulmon mutafakkirlarining zamonaviy g‘oyalarini tanqidiy tahlil qilib, ular asosida bahs-munozaralar o‘tkazadilar. Bunday seminarlar interaktivlikni kuchaytirib, o‘zaro bahs, dalil keltirish va analitik mulohaza yuritish malakasini oshiradi [12:95].

Amaliy bilimning muhim jihati bu boy ilmiy kutubxonalar va arxivlar bilan ishlashdir. Oxford Bodleian Library, Cambridge University Library va SOAS Library islomshunoslik bo‘yicha eng boy fondlarga ega. Bu kutubxonalarda o‘rta asr arab, fors, urdu va turkiy manbalar, tafsirlar, fiqh matnlari, tarixiy hujjatlar, qo‘lyozmalar va zamonaviy tadqiqotlar mavjud.

Talabalar bu materiallar asosida seminar ishlari, kurs ishlari, maqolalar va magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlaydilar. Arxiv materiallar bilan ishlash ularning tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish, o‘qish, tarjima qilish va solishtirish malakasini mustahkamlaydi.

Buyuk Britaniyada islomshunoslik fanlarini o‘qitish amaliyoti o‘zining tarixiy ildizlari, zamonaviy akademik metodlari va fanlararo integratsiyasi bilan boshqa mintaqalardagi yondashuvlardan ajralib turadi. XIX asrdagi sharqshunoslik an‘analaridan boshlangan bu yo‘l hozirda chuqur tanqidiy, interaktiv va ilmiy yondashuvlar bilan boyitilgan. SOAS, Oxford

va Cambridge universitetlari bu borada yetakchi markazlar hisoblanadi.

Bu ta'lim muassasalarida Qur'onshunoslik, hadis, fiqh, siyosiy islom, zamonaviy musulmon jamoalari va diniy-madaniy jarayonlar keng qamrovda, tarix, antropologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik va media tadqiqotlari bilan integratsiyalashgan holda o'rgatiladi.

XULOSA

Buyuk Britaniyada islomshunoslik fanlarini o'qitish jarayoni bugungi kunda nafaqat diniy bilimlarni o'rganishga, balki ularni kengroq ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekstda talqin etishga qaratilgan mukammal ilmiy tizimga aylangan. Bu tizimda tarixiy manbalarni tanqidiy o'rganish, turli mazhab va tafakkur oqimlarini qiyoslash, zamonaviy ilmiy metodologiyalarni tatbiq etish muhim o'rin tutadi. Oksford, Kembrij va SOAS kabi yetakchi universitetlarda islomshunoslik fanlari talabalarga nafaqat bilim, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ilmiy tadqiqot olib borish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu tajriba shuni ko'rsatadiki, islomshunoslikni o'qitishda faqat diniy mazmun bilan cheklanib qolmasdan, uni madaniyatshunoslik, falsafa, tarix, siyosatshunoslik, antropologiya kabi fanlar bilan bog'lash o'quv jarayonini yanada boyitadi. Bunday fanlararo yondashuv islom merosini global ilmiy muhitda chuqurroq anglash va zamonaviy muammolarga mos ilmiy javob topishga imkon yaratadi. Buyuk Britaniya tajribasi islomshunoslik ta'limida innovatsion yondashuvlar, interaktiv metodlar va akademik erkinlikning naqadar muhimligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gibb H. Modern Trends in Islam. – Chicago: University of Chicago Press, 1947. – 160 p.
2. Nicolson R. The Mystics of Islam. – London: Methuen, 1914. – 200 p.
3. Said E. Orientalism. – New York: Pantheon Books, 1978. – 378 p.
4. Bauer K. Gender Hierarchy in the Qur'an: Medieval Interpretations, Modern Responses. – Cambridge: Cambridge University Press, 2015. – 308 p.
5. Lumbard J. The Study Quran: A New Translation and Commentary. – New York: Harper One, 2015. – 2048 p.

6. Rahman F. Islam and Modernity: Transformation of an Intellectual Tradition. – Chicago: University of Chicago Press, 1982. – 181 p.
7. Volpi F. Political Islam Observed: Disciplinary Perspectives. – New York: Columbia University Press, 2010. – 226 p.
8. Poole E. Reporting Islam: Media Representations of British Muslims. – London: I.B. Tauris, 2002. – 324 p.
9. Cornille C. The Im-possibility of Interreligious Dialogue. – New York: Crossroad, 2008. – 280 p.
10. Hodgson M. The Venture of Islam. Vol. 1. – Chicago: University of Chicago Press, 1974. – 545 p.
11. Mandaville P. Global Political Islam. – London: Routledge, 2010. – 408 p.
12. Esposito J. Islam and Democracy. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 240 p.